

Khan Academy O'zbek

MOLIYAVIY HISOBOT

Mart, 2021

Aziz do'stlar!

Siz Khan Academy O'zbek jamoasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha yigirma birinchi moliyaviy hisobotni o'qiyapsiz. Bizni qo'llab-quvvatlaganingiz uchun sizdan juda minnatdormiz va ishimizni yanada shaffof qilish uchun har oyda rasmiy matbuot hisobotini nashr etib boramiz.


Sizning yordamingiz va sarmoyalaringiz tufayli biz, Khan Academy O'zbek tashabbuskor jamoasi, maqsadimizga yanada yaqinlashamiz va dunyoga mashhur Khan Academy bepul onlayn ta'lim platformasini mahalliyashtirish loyihagini amalga oshirish uchun qo'limizdan kelganicha harakat qilamiz.

To'plangan barcha mablag'lar loyihani rivojlantirishga yo'naltiriladi.


2021-yil mart oyida loyihaga 1 185 900 so'm xayriya qilindi va 78 440 730 so'm sarflandi. Mazkur oyda qilingan xarajatlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

Xarajatlar ro'yxati	summa so'mda
Tarjima	- 1 399 200
Tahrir	- 4 901 500
Video	- 23 267 200
Ma'muriy xarajatlar	- 19 622 400
Bank xarajatlari	- 3 150
Marketing	- 5 016 000
Fandreyzing (mablag' yig'ish)	- 501 600
Ta'mirlash va texnik xarajatlar	-
Jihoz va uskunalar	- 850 000
Aloqa xarajatlari (internet, telefon)	-
Ijara haqi	- 5 600 000
Transport xarajatlari	-
Soliqlar	- 15 778 080
Boshqa xarajatlar	- 1 501 600
Jami	- 78 440 730

Xarajatlar foizi quyidagi aylana diagrammada aks etgan:



Mart oyida xarajatlarning 38 foizi (29 567 900 so'm) kontentni yaratishga, ya'ni matnli materiallarni tarjima qilish, ularni tahrir qilish va video darslarni yaratishga sarflandi:



Bugungi kungacha loyihaga 2 062 723 347 so'm va 76 595 AQSH dollari xayriya qilindi, 2 389 627 919 so'm sarflandi.

- Matnni tarjima qilish jarayonini [bu yerda](#) ko'rish mumkin.
- Videodarslarni yaratish jarayonini [bu yerda](#) ko'rish mumkin.
- Tayyor videodarslar [YouTube](#) kanalimizga joylashtirilgan.
- Videodarslarning Telegram'dagi kanallari [bu yerda](#).

Vebsayt — <https://xanakademiya.uz>

Telegram kanal — <https://t.me/khanacademyuzbek>

Facebook sahifa — <https://www.facebook.com/KhanAcademyUzbek>

Instagram sahifa — <https://www.instagram.com/khanacademyuzbek>